



**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMY-TADQIQOT INSTITUTI**

# OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

3/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinnbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamdjjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqlul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alixanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukharram Akhmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**ATAMURATOV Rasuljon Kadirkhonovich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich** – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

## **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор.*

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (*Заместитель главного редактора*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – *доктор экономических наук, профессор.*

**Бегимкулов Узокбой Шоимкулович** – *доктор педагогических наук, профессор.*

**Фарфиев Бахромжон Атхамджанович** – *доктор социологических наук, доцент.*

**Ишкуватов Валикул Турдиевич** – *доктор исторических наук, профессор.*

**Карамян Мариэтта Хачатуровна** – *доктор психологических наук, профессор.*

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – *доктор педагогических наук, профессор.*

**Нурматова Мукхаррам Ахмедовна** – *доктор философских наук, профессор.*

**Нарматов Нуридин Соатмурадович** – *доктор юридических наук, профессор.*

**Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна** – *доктор юридических наук, доцент.*

**Сайдивалиева Хуршида Ходжиакбаровна** – *доктор философии юридических наук (PhD).*

**Атамуратов Расулжон Кадиржонович** – *доктор философии педагогических наук (PhD).*

**Содикова Шохида Мархобаевна** – *доктор социологических наук, профессор.*

**Зохидов Азаматжон Альзамович** – *доктор экономических наук, профессор.*

**Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич** – *доктор географических наук, доцент.*

## **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Farfiyev Bakromjon Atxamdjjanovich** – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

**Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich** – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

**Muslimov Narzulla Alikhanovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – *Doctor of Law Sciences, Assistent Professor.*

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

**Atamuratov Rasuldjon Kadirkhonovich** – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

**Zokhidov Azamatjon Azamovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich** – *Doctor of Geographical Sciences, Assistent Professor.*

*SOTSILOGIYA*

|  |   |
|--|---|
| <b>Xomitov K.Z.</b> Qishloq ayollarini ish bilan ta'minlashning samarali tashkiliy mexanizmlari ta'sirini aniq sotsiologik baholash..... | 4 |
|--|---|

*JAMIYAT VA OILA*

|   |    |
|---|----|
| <b>Ramatov J.S.</b> O'zbekiston yoshlari – kelajagimiz poydevori .....  | 15 |
| <b>Yulchiyeva D.X.</b> O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlarning muhim ahamiyati ..... | 22 |
| <b>Акбаров А.А.</b> Толерантность – это свобода в многообразии.....   | 31 |
| <b>Bo'riyeva M.</b> Oila instituti mustahkamligiga turmush o'rtoq intellekt darajasining ta'siri.....   | 37 |
| <b>Pardayev S.A., Axatova M.Sh.</b> Shaxsda musiqa madaniyatini shakllantirishda oilaning roli.....   | 45 |

*XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI*

|  |    |
|--|----|
| <b>Каримова Д.М.</b> Гендерное равенство: почему этот вопрос становится актуальным в Узбекистане ..... | 52 |
|--|----|

*PEDAGOGIKA*

|  |    |
|--|----|
| <b>Mavlonov B.B.</b> O'smir yoshdagи bolalarning fazilatlarini rivojlantirishda atrof-muhit va pedagogik guruh faoliyatining ta'siri ..... | 61 |
|--|----|

*IQTISODIYOT*

|  |    |
|--|----|
| <b>Shayusupova N.T., Amirdjanova S.S.</b> Relationship between employment and economic growth in Uzbekistan .....                    | 75 |
| <b>Adilova Z.D., Umirova D.S.</b> Modern factors in the development of regional tourism.....   | 89 |
| <b>Meliboyev A.R., Masharipov F.O'.</b> Mehnat bozori ehtiyojlari asosida yoshlarni zamonaviy va sifatli kasb-hunarga o'qitish ..... | 98 |

**Bo‘riyeva Mahbuba,**  
“Oila va xotin qizlar” ilmiy-tadqiqot  
instituti kichik ilmiy xodimi



# OILA INSTITUTI MUSTAHKAMLIGIGA TURMUSH O‘RTOQ INTELLEKT DARAJASINING TA’SIRI

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqola erkaklar va ayollarda intellekt hamda nikohdan qoniqishni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu yerda erkaklar va ayollarning emotsiyal intellekti hamda IQ darajasi ko‘rsatkichlarida sezilarli farqlar aniqlangani ko‘rsatib o‘tilgan.

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению интеллекта и удовлетворенности браком у мужчин и женщин, а также показано, что существуют существенные различия показателей эмоционального интеллекта и уровня IQ мужчин и женщин.

**Annotation.** This article is dedicated to the study of intelligence and marital satisfaction in men and women, there also shown that there are significant differences in the indicators of emotional intelligence and IQ level of men and women.

**Tayanch so‘zlar:** emotsiyal intellekt, IQ darjasi, nikoh, ma’lumot darajasi, nikohdan qoniqqanlik.

**Ключевые слова:** эмоциональный интеллект, уровень IQ, брак, уровень образования, удовлетворенность браком.

**Keywords:** emotional intelligence, IQ level, marriage, education level, marital satisfaction.

**Kirish.** Mustaqilikka erishilgan kundan boshlab O‘zbekistonda oila va nikoh masalasiga juda katta e’tibor qaratila boshlandi. Shu bilan birga, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlagandek, “Oila bu muqqaddasdir, bunga biz befarq emasmiz, chunki O‘zbekistonagi har bir oila uchun biz g‘amxo‘rdirmiz” deb ta’kidlagan edilar. Hozirgi kunda “Oila ilmiytadqiqot inistituti” faoliyati ishimizning dolzarbligini oshiradi.

L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi doirasida, uning “Birlashgan psixologik tizimlar” haqidagi g‘oyalari, turmush o‘rtoqlar haqidagi g‘oyalarining o‘zaro ta’siri natijasida ularning dunyo qiyofasini qayta qurish, qadriyat yo‘nalishlari va hayot nuqtayi nazarlarining o‘zgarishi maxsus tizim shakllanishi deb tushunilishi mumkin. Ushbu o‘zgarishlar natijasida nikoh munosabatlarini asrab-avaylash vazifalari oila farovonligi uchun, ayniqla, muhim ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>. O‘z his-tuyg‘ularini tushunish va boshqalarning his-tuyg‘ularini farqlash qobiliyati, boshqacha qilib aytganda, emotsiyonal intellekt nikohni qondirish uchun alohida ahamiyatga ega. Er-xotinning hissiy darajadagi samarali o‘zaro munosabatlari ko‘plab nizolarning oldini oladi va shuning uchun ham nikoh munosabatlarida yuqori darajada qoniqish hosil qilish imkonini beradi.

Kuzatishlarimiz va o‘rganilgan adabiyotlar tadqiqotimiz maqsadi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish shunday fikrga kelishimizga asos bo‘ldiki, oilaviy turmushda er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgarib, rivojlanib borish xususiyatiga ega, ya’ni bu munosabatlar dinamik jarayondir. Bu jarayonni shaxs tomonidan boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, bu jarayonda shakllantirish imkonini mavjudligini bildiradi.

Albatta, bu o‘zgarishlar qator tashqi va ichki (subyektiv) omillarga bog‘liq. Yana shuni ta’kidlash zarurki, bu munosabatlar dinamikasi ma’lum bir bosqichlarni o‘z boshidan kechiradi hamda muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Mazkur qonuniyatlar bilish jarayonini boshqarish va unga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

“Odamning nikoh va oila qurishga tayyorligining boshlang‘ich nuqtasi uning oilaviy munosabatlar ahamiyatini tushunishi, odamlarning bir-birlari oldidagi javobgarligini tushunishi, oilaviy hayotda muqarrar bo‘lgan tashvishlar va shaxsiy erkinlikdagi chekashlarni o‘z xohishiga ko‘ra qabul qilishi hisoblanadi”<sup>2</sup>. Demak, shaxslararo munosabatlar

1 Classen CC et al.(2018). Sexual Revictimisation: A Review of the Empirical Literature. *Trauma Violence and Abuse*, 6(2): pp.103-129.

2 Flood R. Communication Tools That Saved My Marriage. Family Life 2005. Available at <http://www.familylife.com/articles/topics/marriage/staying-married/communication/5-communicationtools-that-saved-my-marriage> (Accessed on 11 January 2017).

*“Odamning nikoh  
va oila qurishga  
tayyorligining  
boshlang‘ich  
nuqtasi  
uning oilaviy  
munosabatlar  
ahamiyatini  
tushunishi,  
odamlarning bir-  
birlari oldidagi  
javobgarligini  
tushunishi, oilaviy  
hayotda muqarrar  
bo‘lgan tashvishlar  
va shaxsiy  
erkinlikdagi  
chekashlarni o‘z  
xohishiga ko‘ra  
qabul qilishi  
hisoblanadi”*

xarakterining o‘ziga xos tarzda shakllanib va o‘zgarib borishi er-xotin munosabatlarida tabiiy bir holki, bu munosabatlarning oilaviy turmush staji ortib borishi bilan o‘zgarib, o‘ziga xos tarzda shakllanib borishiga ham ayni tarzda qarash maqsadga muvofiq.

**Asosiy qism.** Biz tadqiqotimizda yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oilaviy turmushni bosqichlarga ajratishda er va xotin munosabatlarida ro‘y berishi ehtimoli bo‘lgan intellektning nikohdan qoniqish darajasiga bog‘liqligini asos qilib oldik hamda munosabatlar yaqqolroq namoyon bo‘ladigan nikohdan qoniqqanlik darajasini aniqlashni, oilaviy turmushning turli bosqichlarida er-xotinlarning o‘zaro bir-birlarini tushunishni, emotsiyal intilishi va o‘zaro hurmati namoyon bo‘lishi va oilada rollar taqsimoti xarakterini o‘rganishni tadqiqotimiz maqsadiga erishish imkonini beruvchi vazifa sifatida belgiladik.

Turmush o‘rtoq intellektining nikohdan qoniqqanlik darajasiga bog‘liqligining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotda biz quyidagilarga asoslanamiz. Mamlakatimiz psixolog olimlari: M.G.Davletshin, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, B.M.Umarov, A.M.Jabbarov, Z.A.Rasulova, M.Utepbergenov, X.K.Karimov, M.S.Salayeva, G.T.Yadgarova, H.U.Abdusamatov, G.Niyazmetova, U.S.Saribayeva va boshqalarning ilmiy ishlarida respublikada oila muammolari, undagi shaxslararo munosabatlar hamda psixologik muhit, ota-onalarni munosabatining o‘smir shaxsiga ta’siri, oiladagi tarbiya va boshqa jihatlarga e’tibor qaratilgan.

Ko‘pgina tadqiqotlar nikohdan qoniqishni oilaviy hayot davomiyligi, ishdan qoniqish, uy mehnati taqsimoti, nikoh motivlari, nikohdan oldin uchrashuv, turmush o‘rtoqlarni psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi, turmush o‘rtoqlarning fe’l-atvori, oiladagi bolalar soni, gender farqlari, bo‘sh vaqt bilan bog‘liqligini aniqladi.

Hech kimga sir emaski, intellekt va nikohdan qoniqish o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. Ammo bu hodisalar birgalikda yetarlicha o‘rganilmagan. Aynan ikkita psixologik yo‘nalish tadqiqotlarini o‘rganish yangi bir natijalar olishga imkon beradi.

Shunday qilib, erkaklar va ayollarda intellekt hamda nikohdan qoniqishni birgalikda o‘rganishga qaror qilindi va maqsad qo‘yildi, uning natijasi o‘rganilayotgan omillar bo‘yicha mavjud farazlarni tasdiqlash yoki rad etish bo‘ladi.

Farazlar:

- er va xotinning oilaviy munosabatlaridan qoniqish hissi ularning IQ darajasiga bog‘liqligi;
- oilada ayolning nikohdan qoniqish darajasi emotsiyal intellekt bilan bog‘liq bo‘lishi;

*Ko‘pgina  
tadqiqotlar  
nikohdan  
qoniqishni oilaviy  
hayot davomiyligi,  
ishdan qoniqish, uy  
mehnati taqsimoti,  
nikoh motivlari,  
nikohdan oldin  
uchrashuv,  
turmush  
o‘rtoqlarni  
psixologik qo‘llab-  
quvvatlash  
darajasi, turmush  
o‘rtoqlarning fe’l-  
atvori, oiladagi  
bolalar soni,  
gender farqlari,  
bo‘sh vaqt bilan  
bog‘liqligini  
aniqladi*

– IQ darajasi yuqori bo‘lgan erkaklarda o‘z oilasiga nisbatan xiyonat qilish ehtimoli kam bo‘lishi;

– emotsiyal intellekt darajasi yuqori bo‘lgan erkaklarda nikohdan qoniqish darajasi past ekanligi.

*Amaliy jihatdan  
olganda, tadqiqot  
ishimizda  
ishtrok etgan  
respondentlarning  
soni jami 100  
nafarni tashkil etib,  
ular 22 yoshdan 50  
yoshgacha bo‘lgan  
60 nafar ayol  
(60%) va 40 nafar  
(40%) erkakdan  
iboratdir. Ularning  
nikoh tajribasi 1  
yildan 28 yilgacha.  
Ayollarning 50  
foizi (30 nafari) va  
erkaklarning 67,5  
foizi (27 nafari)  
oliy ma’lumotli,  
qolganlari esa  
o‘rta maxsus  
ma’lumotga ega*

Amaliy jihatdan olganda, tadqiqot ishimizda ishtrok etgan respondentlarning soni jami 100 nafarni tashkil etib, ular 22 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan 60 nafar ayol (60%) va 40 nafar (40%) erkakdan iboratdir. Ularning nikoh tajribasi 1 yildan 28 yilgacha. Ayollarning 50 foizi (30 nafari) va erkaklarning 67,5 foizi (27 nafari) oliy ma’lumotli, qolganlari esa o‘rta maxsus ma’lumotga ega. Oliy ma’lumotli respondentlarning umumiyligi ulushi 57 foizni tashkil etadi. Oilalarning 90 foizi Toshkentda yashaydi, qolganlari uzoq shahar atrofidagi aholi punktlarida yashaydi. Rasmiy ish bilan bandlarning 100 foizi erkaklar va 48,4 foizi (29 nafar) ayollar. Ayollarning 51,6 foizi yakka tartibdagi tadbirkorlik yoki uy yumushlari bilan band.

Tadqiqotda kuzatish, suhbat, psixologik testlar, so‘rov nomalar va matematik statistika metodlaridan foydalanilgan. Jumladan, Y.E.Alyoshinaning “Nikohdan qoniqish darajasini aniqlash” metodikasi, er-xotinlarning o‘zaro tushunish, hissiy yaqinlik, o‘zaro hurmat omillarining jinsiy mutanosiblikka ta’sirini o‘rganish uchun A.N.Volkova tomonidan yaratilgan PEA metodikasi hamda Dj.Raven tomonidan umumiyligi intellektni o‘lchashga mo‘ljallangan “Progressiv matriksalar” testidan, N.Xollning emotsiyal intellektni baholash testidan foydalanildi. Olingan natijalar ishonchliligi matematik-statistik metodlari (Pirsonning korrelyatsiya koefitsiyenti tahlil hamda Mann-Whitney U mezonii bo‘yicha faktorli tahlil) orqali SPSS statistik paketi yordamida ta’mindandi.

Tadqiqot davomida erkaklar va ayollarda intellekt ko‘rsatkichlarining taqsimlanishini aks ettiruvchi jadvallar ko‘rinishida keltirilgan natijalar olindi (1-jadval).

Natijaga ko‘ra, respondentlarning jinsi bilan yosh hamda kasb ko‘rsatkichlari bilan teskari korrelyatsion bog‘lanish ( $r=-0,224$ ;  $r<0,01$ ), ( $r=-0,656$ ;  $r<0,01$ ) hosil qildi.

Yosh ko‘rsatkichi bilan nikohdan qoniqish darajasi, intellekt darajasi ko‘rsatkichlari bilan korrelyatsion bog‘lanish ( $r=0,230$ ;  $r<0,01$ ), ( $r=0,301$ ;  $r<0,01$ ) bo‘lib, yoshning ortib borishi ularning nikohdan qoniqish darajasining ortib borishi va intellektning yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lar ekan.

Bundan tashqari, yosh ko‘rsatkichining ortib borishi turmush stajining ortib borishiga ham sabab bo‘ladi ( $r=0,884$ ;  $r<0,01$ ).

*I-jadval*

**Turmush o'rtoq intellektining nikohdan qoniqish darajasiga bog'liqligini baholash**

|                               | Jinsi | Yoshi  | Kasbi   | Ma'lumoti | Turmush staji | Nikohdan qoniqchanlik darjası | Intellekt darjası |
|-------------------------------|-------|--------|---------|-----------|---------------|-------------------------------|-------------------|
| Jinsi                         | 1     | -,224* | -,656** | ,173      | ,106          | -,123                         | ,129              |
| Yoshi                         |       | 1      | ,098    | -,158     | ,884**        | ,230*                         | ,301**            |
| Kasbi                         |       |        | 1       | -,162     | -,133         | ,030                          | -,127             |
| Ma'lumoti                     |       |        |         | 1         | -,035         | ,774**                        | ,191*             |
| Turmush staji                 |       |        |         |           | 1             | ,147                          | ,349**            |
| Nikohdan qoniqchanlik darjası |       |        |         |           |               | 1                             | ,579**            |
| Intellekt darjası             |       |        |         |           |               |                               | 1                 |

Er-xotinlarning oliv yoki o'rta maxsus ma'lumoti darjası yuqori bo'lishi intellekt va nikohdan qoniqish darjası omillari bilan bog'liq bo'ladi ( $r=0,774$ ;  $r<0,01$ ), ( $r=0,161$ ;  $r<0,05$ ). Oilaviy turmush staji ortib borishi er-xotinlarda intellekt darjasining baland bo'lishi bilan xarakterlanadi ( $r=0,349$ ;  $r<0,01$ ). Nikohdan qoniqish darjasining yuqori bo'lishi intellekt darjası bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatmoqda ( $r=0,356$ ;  $r<0,01$ ).

Oilada turmush o'rtoqlarning intellektual rivojlanishi ushbu munosabatlarning barqarorligini belgilaydi, bolalar va kattalarning rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy nikoh zamonaviy odamlarning shaxs sifatida muvofiqligiga asoslanadi. Turmush qurgan er-xotin oilaning asosi bo'lib, oilani muvaffaqiyatli yoki omadsiz deb baholash nuqtayi nazaridan nikoh munosabatlari markaziy o'rinni egallaydi, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlar nikoh sifatiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. V.P.Levkovich va O.E.Zuskova ta'kidlashicha, nikoh munosabatlaridan qoniqish nikohdagi bir qator asosiy ehtiyojlarni (muloqot, bilim, o'z-o'zini anglash, o'zaro tushunish va boshqalar) qondirish bilan belgilanadi<sup>3</sup>.

Intellektual rivojlanishning ahamiyatini bu ro'yxatdan chiqarib tashlab bo'lmaydi. Bu ehtiyojlar turmush o'rtoqlar uchun bir xil emas va ko'p jihatdan ular bir-biriga ziddir. Turmush o'rtoqlar o'rtasidagi yuqori darajadagi intellekt oila ittifoqining muvaffaqiyatini taminlaydigan darjası o'zaro munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi.

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, intellekt darjasining yuqori bo'lishi er-xotinlarning turmush o'rtog'iga bo'lgan sadoqat hissiga

<sup>3</sup> Classen CC et al.(2018). Sexual Revictimisation: A Review of the Empirical Literature. Trauma Violence and Abuse, 6(2): pp.103-129.

bog‘liq. Bu nafaqat jismoniy sadoqat haqida, balki uning uchun o‘rnatilgan yaqinlik haqiqatan ham muhimdir, agar u to‘satdan boshqasini sevib qolsa, bu katta aybdorlik hissi bilan mustahkamlanadi.

Shunday qilib, turmush o‘rtoqlarning nikohdan qoniqishi yoki noroziligi turmush o‘rtoqlarning bir-birini tushunish qobiliyatiga bog‘liq. Er-xotinlarning intellekt darajasi va nikohdan qoniqish darajasining yuqoriligi ularda sezilarli ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Yuqoridagi jadvalimizdan ham ko‘rsak bo‘ladiki, intellekt darajasi yuqori bo‘lgan turmush o‘rtoqlarda har doim nikohdan qoniqish darajasi yuqori bo‘lgan, intellekt darajasi past bo‘lgan turmush o‘rtoqlarda esa aksincha. Bu yuqori intellektga ega turmush o‘rtoqlarga o‘zaro samarali munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi, oila birligining muvaffaqiyatini ta’minlaydi va xiyonat qilish foizini kamaytiradi.

*2-jadval*

### **Emotsional intellektning nikohdan qoniqish darajasiga bog‘liqligini baholash**

|                               | Jinsi | Yoshi  | Ma'lumoti | Turmush staji | Nikohdan qoniqqanlik darajasi | Emotsional intellekt |
|-------------------------------|-------|--------|-----------|---------------|-------------------------------|----------------------|
| Jinsi                         | 1     | -,224* | ,173      | ,106          | -,123                         | ,233*                |
| Yoshi                         |       | 1      | -,158     | ,884**        | ,230*                         | ,145                 |
| Turmush staji                 |       |        |           | 1             | ,147                          | ,162                 |
| Nikohdan qoniqqanlik darajasi |       |        |           |               | 1                             | -,353**              |
| Emotsional intellekt          |       |        |           |               |                               | 1                    |

Sinaluvchilarning jinsi yosh va emotsional intellekt bilan bo‘lgan korrelyatsion bog‘lanishni hosil qilgan. Bunga ko‘ra, respondentlarning jinsida va yosh ko‘rsatkichlari o‘rtasida teskari korrelyatsion bog‘lanish hosil qilib ( $r=-0,224$ ;  $r<0,0$ ), ularning emotsional intellektining yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lar ekan ( $r=0,233$ ;  $r<0,05$ ). Bundan tashqari, yosh ko‘rsatkichining ortib borishi turmush stajining ortib borishiga ( $r=0,884$ ;  $r<0,01$ ) va nikohdan qoniqish darajasining yuqori bo‘lishiga olib kelar ekan ( $r=0,230$ ;  $r<0,01$ ). Nikohdan qoniqish darajasining yuqori bo‘lishi emotsional intellekt darajasi bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatmoqda ( $r=0,353$ ;  $r<0,01$ ), bunda er-xotinning nikohdan qoniqishi yuqori bo‘lganda emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lar ekan.

Er-xotin munosabatlarining muvaffaqiyati va samaradorligi ularning o‘zaro munosabatlarida “O‘zaro tushunish”, “Emotsional intilish” va “O‘zaro hurmat” kabi omillarning qay darajada nomoyon bo‘lish xarakteriga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Chunki bu omillar er-xotin munosabatlari mustahkamligini ta‘minlovchi ichki (psixologik) omillar bo‘lib, ular aksariyat hollarda er-xotinning faqat o‘zlarigagina taalluqli va ularning o‘zlarigina his qiladigan holatlarni ifodalaydi.

Ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan tahlillar mazmuniga asoslanib, olingan ma’lumotlarning haddan tashqari baholangan qiymatlarga nisbatan siljishini ta‘kidlash kerak. Jadvaldagi ayollar orasidagi emotsiyal intellekt natija ko‘rsatkichlarida olingan ma’lumotlar bizga o‘rganilgan ayollarning o‘zini va boshqalarning emotsiyalarini tushunish qobiliyatini, ularni boshqarish, salbiy emotsiyalarni bostirish, ijobjiy emotsiyalarni saqlash, shuningdek, atrofdagi odamlarda salbiy yoki ijobjiy emotsiyalarni uyg‘otishga imkon beradi.

Nikohdan qoniqishga kelsak, ayollar orasida qadr-qimmat haddan tashqari ustunlik qiladi. Bu, birinchidan, 5 yilgacha bo‘lgan oilaviy tajribaning pastligi, ikkinchidan, bolalarning yo‘qligi bilan bog‘liq, bu esa, o‘z navbatida, bolalarning tug‘ilishi hamda ularga g‘amxo‘rlik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan 3 va 5 yillik inqirozlarning o‘tishini belgilaydi.

Tadqiqotning erkaklar qismida ham haddan tashqari baholangan qiymatlar ustunlik qiladi. Olingan natijalar bizga erkaklarda emotsiyal intellekt o‘rtasidagi turli xil farqni ifodalashga imkon beradi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘z emotsiyalarini yaxshi tushunish, shuningdek, ularni boshqarish qobiliyati, ayollarda mavjud salbiy emotsiyalarni bostirishga, ijobjiy emotsiyalarni saqlab qolishga qodir tuyg‘ular, shuningdek, atrofdagi odamlarda salbiy yoki ijobjiy emotsiyalarni keltirib chiqaradi.

Emotsional intellekt darajasining er-xotin munosabatlariga ta’siri amerikalik olimlar M.A.Brekett, D.Meyer va R.Uorner tomonidan o‘rganilib, ular ikkala sherikning ham emotsiyal intellekti past bo‘lsa, ularning munosabatlari ziddiyatli bo‘lishi mumkin, degan xulosaga kelishadi. Ammo agar sheriklardan biri yuqori darajada emotsiyal intellektga ega bo‘lsa, unda yuqori emotsiyal intellektga ega bo‘lgan ikkala turmush o‘rtoqlarga qaraganda munosabatlari yaxshirokdir<sup>4</sup>.

**Xulosa.** Olingan natijalardan xulosa qilishimiz mumkinki, nikohning sifatini nikohdan qoniqish darajasiga qarab baholab bo‘lmaydi, chunki nikohdan qoniqish yoki norozilik, nikohning haqiqiy sifati bilan emas, balki intellekt darajasi bilan o‘lchanadi.

**Nikohdan  
qoniqishga kelsak,  
ayollar orasida  
qadr-qimmat  
haddan tashqari  
ustunlik qiladi.  
Bu, birinchidan,  
5 yilgacha  
bo‘lgan oilaviy  
tajribaning pastligi,  
ikkinchidan,  
bolalarning  
yo‘qligi bilan  
bog‘liq, bu esa,  
o‘z navbatida,  
bolalarning  
tug‘ilishi hamda  
ularga g‘amxo‘rlik  
qilish bilan  
bog‘liq bo‘lgan  
3 va 5 yillik  
inqirozlarning  
o‘tishini belgilaydi**

<sup>4</sup> <https://timesofindia.indiatimes.com>

IQ darajasi yuqori bo‘lgan turmush o‘rtoqlar har doim nikoh sifatidan rozi bo‘lishadi. IQ darajasi past bo‘lgan turmush o‘rtoqlar esa bundan norozi bo‘lishadi.

Oilada turmush o‘rtoqlarning intellektual rivojlanishi ushbu munosabatlarning barqarorligini belgilaydi hamda bolalar va kattalarning rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy nikoh zamonaviy odamlarning shaxs sifatida muvofiqligiga asoslanadi. Turmush qurban er-xotin oilaning asosi bo‘lib, oilani muvaffaqiyatli yoki omadsiz deb baholash nuqtayi nazaridan nikoh munosabatlari markaziy o‘rinni egallaydi, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlar nikoh sifatiga eng katta ta’sir qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagи “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni.*
2. Антонюк Е.В. *Представления супругов о распределении ролей и становление ролевой структуры молодой семьи: Автoreф.дисс. ... канд.психол.наук. – Москва, 1999. – 24 с.*
3. Косачева В.И. *Проблема стабильности молодой семьи: философский и социально-психологический анализ: Дисс. ... канд. филос. наук. – Минск, 2010.*
4. Ачгильдиева Е.Ф. *Методические проблемы изучения стабильности брака: Автoreф.дисс. ...канд.экон.наук. – Москва, 2004. – 18 с.*
5. Голод С.И. *Семья и брак: историко-социологический анализ. – Санкт-Петербург, 2001.*  
Андреева И.Н. *Эмоциональный интеллект: исследования феномена // Вопросы психологии. 2006. – № 3. – С. 78–86.*
6. Classen CC et al.(2018). *Sexual Revictimisation: A Review of the Empirical Literature. Trauma Violence and Abuse, 6(2): pp.103-129.*
7. Flood R. *Communication Tools That Saved My Marriage. Family Life 2005. Available at <http://www.familylife.com/articles/topics/marriage/staying-married/communication/5-communicationtools-thatsaved-my-marriage> (Accessed on 11 January 2017).* Sanghani R. *When does an argument between lovers become domestic abuse?.*
8. <http://www.psychomind.ru>
9. <https://timesofindia.indiatimes.com>

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA  
IJTIMOIY HAYOT  
СЕМЬЯ, ЖЕНШИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ  
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

*elektron ilmiy jurnal*  
электронный научный журнал  
*electronic scientific journal*

**3/2022**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-soni  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.  
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy  
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni  
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»  
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.  
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,  
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных  
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and  
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.  
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific  
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions  
of makhalla, family and gender equality.*

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

**Jo‘rayeva M., Razzakova N.,**

**Sobirova E., Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilov ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.